



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehnonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI VA ULARNING MILLIIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashovich	



YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI VA ULARNING MILLIY RIVOJLANISHI

Turayev Abduvohid Kuldashevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Raqamli iqtisodiyot kafedrası assistenti

E-mail: abduvoxidturayev70@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda global va O'zbekiston kontekstida yashil iqtisodiyot hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan. Tadqiqot davomida quyosh, shamol, gidro va biomassa energiyasining umumiy energetika tizimidagi ulushi, yangi qo'shilgan quvvatlar dinamikasi hamda ularning iqtisodiy va ekologik samaradorligi tahlil qilindi. Natijalar qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar energiya xavfsizligini mustahkamlash, karbon emissiyasini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, ishda rivojlangan davlatlar tajribasi va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan strategik islohotlar o'zaro solishtirildi. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot yo'nalishida samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, shamol energiyasi, quyosh energiyasi, gidro energiyasi, biomassa manbalari, karbon emissiyasi, energetika siyosati, barqaror rivojlanish.

Abstract. This study examines the development trends of the green economy and renewable energy sources in both the global and Uzbek contexts. The research analyzes the share of solar, wind, hydro, and biomass energy within the energy system, the dynamics of newly installed capacities, and their economic and environmental significance. The findings indicate that investments in renewable energy not only enhance energy security but also contribute to reducing carbon emissions and protecting the environment. In addition, the study compares international experience with the strategic reforms being implemented in Uzbekistan. The results provide a scientific and practical basis for making effective decisions in the field of green economy and ensuring sustainable development in the future.

Key words: green economy, renewable energy, energy efficiency, wind energy, solar energy, hydropower, biomass resources, carbon emissions, energy policy, sustainable development.

Аннотация. В данной работе исследованы тенденции развития зелёной экономики и возобновляемых источников энергии в глобальном масштабе и в условиях Узбекистана. В ходе исследования был проведён анализ доли солнечной, ветровой, гидро- и биоэнергии в энергетической системе, динамики ввода новых мощностей, а также их экономической и экологической эффективности. Результаты показывают, что инвестиции в сферу возобновляемой энергетики способствуют укреплению энергетической безопасности, снижению выбросов углерода и обеспечению экологической устойчивости. Кроме того, в работе сопоставлены международный опыт развитых стран и стратегические реформы, реализуемые в Узбекистане. Полученные результаты могут служить научно-практической основой для принятия эффективных решений в области зелёной экономики и обеспечения устойчивого развития.

Ключевые слова: зелёная экономика, возобновляемая энергия, энергоэффективность, ветровая энергия, солнечная энергия, гидроэнергия, биомасса, углеродные выбросы, энергетическая политика, устойчивое развитие.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot bugungi global va milliy rivojlanishning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolar mamlakatlarni barqaror energiya manbalariga o'tishga majbur qilmoqda. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalari — quyosh, shamol, gidro va biomassa energiyasi — iqtisodiy o'sish hamda ekologik barqarorlikni bir vaqtda ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston ham o'z energiya siyosatida yashil iqtisodiyot yo'nalishlarini faollashtirmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya ulushining ortib borayotgani, yangi quvvatlarning barqaror tarzda qo'shilishi va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatni global ekologik jarayonlarga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli, yashil iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot tamoyillari bugungi kunda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim konseptual yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu mavzu doirasida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar, nazariy qarashlar hamda amaliy takliflar ilgari surilgan.

Xususan, mahalliy tadqiqotchilardan Toshpo'lotova J.N.ning "Yashil iqtisodiyot tamoyillari va ularning milliy rivojlanishdagi ahamiyati" nomli ilmiy maqolasida: "Yashil iqtisodiyot — bu global, universal va transformativ o'zgarishdir. Bu hukumat ustuvorliklarini tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Ushbu o'zgarishni amalga oshirish oson emas, lekin agar biz barqaror rivojlanish maqsadlariga erishmoqchi bo'lsak, bu zarur" [1], deya ta'kidlanadi.

Yana bir mahalliy olim Ismanov I.N.ning "Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari" nomli maqolasida ham: "Yashil iqtisodiyot — bu insonlar hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni, atrof-muhit hamda bioxilma-xillikni bir butun holda saqlab qolgan holda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanayotgan faoliyatdir" [2], deb yashil iqtisodiyotga ta'rif beriladi.

Bundan tashqari, Mustafaqulov Y.B. va Qilichov S.S.larning "Yashil iqtisodiyot va uning rivojlanish bosqichlari" nomli maqolasida: "Barqaror rivojlanishning ijtimoiy tarkibi insonga qaratilgan bo'lib, ijtimoiy va madaniy tizimlarning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgandir. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi inson tanlovini kengaytirish asosiy g'oya ekanligiga tayangan holda, insonning o'z hayot faoliyatini shakllantirish, qarorlar qabul qilish, ularni amalga oshirish va bajarilishini nazorat qilish jarayonida to'laqonli qatnashishi lozimligini nazarda tutadi. Bu "yashil" iqtisodiyot asosida amalga oshirilishi muhim omil hisoblanadi" [3], deb qayd etilgan.

Xorijiy olimlardan L. Dogaruning "Green Economy and Green Growth – Opportunities for Sustainable Development" nomli maqolasida: "Iqtisodiy faoliyat zamonaviy sharoitlarda tobora kengayib bormoqda va bu holat ko'pincha atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Ushbu ta'sirlar shunday darajaga yetdiki, ularni iqlimni shakllantirish va modellashtirishda muhim omil sifatida baholash mumkin. Bunday tendensiya yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab tashabbuslar va strategiyalarni yuzaga keltirdi. So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va yashil o'sish bo'yicha maxsus davlat siyosati choralari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Iqtisodiy hamda ekologik rivojlanish sohasidagi asosiy muammolarni, shuningdek, yashil iqtisodiyot uchun davlat siyosatini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanishning global tendensiyalari tobora ko'proq yashil iqtisodiyot va yashil o'sish bilan ifodalanmoqda" [4], deya ta'kidlangan.

Qo'shimcha ravishda, I. Mikhno, V. Koval va boshqalarning "Green Economy in Sustainable Development and Improvement of Resource Efficiency" nomli ilmiy maqolasida: "Sanoat ishlab chiqarishi hajmining kengayishi natijasida antropogen ta'sirning kuchayishi va tashqi muhitning yomonlashuvi kuzatilmoqda. Bu esa salbiy tashqi ta'sirlarni hisobga olmagan holda bozor tizimining samarali ishlashi imkonsiz ekanligini ko'rsatadi. Maqolada jamiyatni yanada rivojlantirish uchun asos sifatida yashil iqtisodiyotning yo'nalishlari va tamoyillari ko'rib chiqilgan. Atrof-muhit omillarining hayot sifatiga ta'siri, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. Shuningdek, ekologik va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi samarali indekslar hamda yashil iqtisodiyotni joriy etishda yuzaga keladigan asosiy tendensiyalar va muammolar tahlil qilingan" [5], deb qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlarni tahlil qilish va solishtirma metodlar qo'llanildi. Global hamda milliy statistika ma'lumotlari — jumladan, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, yangi quvvatlar va karbon emissiyasi ko'rsatkichlari — yig'ilib, 2019–2025-yillar oralig'idagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Shuningdek, case study yondashuvi yordamida O'zbekiston va boshqa davlatlarning yashil iqtisodiyotga oid amaliy tajribasi o'zaro solishtirildi. Bu esa mamlakat siyosati hamda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asosida energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rganishlar natijasida yashil iqtisodiyot tamoyillarining nazariy asoslari, ularning barqaror rivojlanishdagi o'rni hamda milliy iqtisodiyotga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilindi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari asosida ushbu yo'nalishning ustuvor jihatlari, rivojlanish omillari va amaliy qo'llash imkoniyatlari o'rganildi. Natijada yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligi yuzasidan muhim xulosalar shakllantirildi.




So'nggi yillarda mamlakatimizda ham "yashil iqtisodiyot"ni barqaror rivojlantirish borasida ko'plab qaror va farmonlar qabul qilinib, turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini misol sifatida keltirish mumkin [6]. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan. Strategiya doirasida iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, "yashil" texnologiyalarni joriy etish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, ushbu hujjat ijtimoiy farovonlikni oshirish, ekologik muvozanatni saqlash hamda xalqaro majburiyatlar, xususan, iqlim bo'yicha kelishuvlar doirasidagi vazifalarni bajarishga xizmat qiluvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Hozirgacha O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlar aniq statistik natijalar bilan ham tasdiqlanmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya sohasida sezilarli o'sish kuzatilib, 2024-yilda quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan 4,86 mlrd kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2025-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 10,5 mlrd kVt-soatga yetgan [7]. 2025-yilda umumiy "yashil" energiya ishlab chiqarish hajmi 14,5 mlrd kVt-soatni tashkil etib, mamlakat elektr energiyasi ishlab chiqarishining qariyb 23 foiziga teng bo'lgan [8]. Natijada 2,1 mlrd kub metr tabiiy gaz tejali, 2,9 mln tonnadan ortiq zararli chiqindilarning atmosferaga chiqarilishining oldi olingan. 2026-yil boshiga kelib esa mamlakatda 15 ta quyosh va 5 ta shamol elektr stansiyasi faoliyat yuritib, ularning umumiy quvvati 5 582 MVtga yetgan [7].

Bundan tashqari, energetika va infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha ham muhim natijalarga erishildi. 2017–2024-yillar davomida mamlakatda 11 000 MVt yangi elektr ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilib, 54,8 ming km elektr tarmoqlari hamda 17,2 ming transformator punktlari modernizatsiya qilindi [7]. Shu bilan birga, energiya samaradorligi oshib, yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi 7,4 foizga kamaydi. Qishloq xo'jaligi va ekologiya yo'nalishlarida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, suv tejovchi texnologiyalar joriy etilmoqda, Orolbo'yi hududida millionlab daraxtlar ekilmoqda hamda chiqindilarni qayta ishlash asosida yiliga 2,1 mlrd kVt-soat energiya ishlab chiqarishga qaratilgan 1,3 mlrd dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda [9]. Ushbu natijalar mamlakatda "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni izchil va samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Dunyoning yetakchi mamlakatlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayoni keng ko'lamli investitsiyalar va tizimli islohotlar orqali jadallashmoqda. Xitoyda toza energiya sektori 2024-yilda yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan ortig'ini tashkil etib, 13,6 trillion yuan, ya'ni taxminan 1,9 trillion dollar hajmida iqtisodiy qiymat yaratdi hamda 2025-yilda iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylandi [10]. Yevropa Ittifoqida esa Net Zero Industry Act qabul qilinib, 2030-yilgacha "yashil" texnologiyalar ishlab chiqarish ulushini 40 foizga yetkazish maqsad qilib qo'yildi. Bu esa mintaqada sanoatni ekologik jihatdan transformatsiya qilish jarayonini tezlashtirmoqda [9]. Global darajada qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarining 2024-yilda 582 GVtga oshgani "yashil" energetika rivojining jadal sur'atlarda davom etayotganini ko'rsatadi [11].

AQShda Inflation Reduction Act dasturi doirasida toza energiya va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish uchun 30 mlrd dollardan ortiq mablag' yo'naltirilishi rejalashtirilgan bo'lib, bu mamlakatda "yashil" sanoatni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Jahon miqyosida energiya transformatsiyasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2024-yilda 400 mlrd dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu ko'rsatkich "yashil" iqtisodiyot global iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylanganini anglatadi [12]. Natijada ko'plab davlatlarda qayta tiklanuvchi energiya, elektromobillar, vodorod texnologiyalari hamda ekologik moliyalashtirish mexanizmlari keng rivojlanib, barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida shakllanmoqda (1-rasm).



1-rasm. "Jahon mamlakatlarida "yashil" iqtisodiyot ulushi 2024-2025" [13]



Keltirilgan jadvalga ko'ra, jahon miqyosida qayta tiklanuvchi energiya ulushi 34 foizga yetgan bo'lib, bu global energetika tizimining barqarorlik hamda yashil iqtisodiyotga o'tish yo'nalishidagi sezilarli o'sishini ko'rsatadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari orasida quyosh energiyasi 16 foiz bilan yetakchi o'rinni egallaydi, shamol energiyasi esa 12 foiz ulush bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Gidroenergiya va biomassa kabi boshqa manbalar mos ravishda 6 foiz hamda 4 foizni tashkil etadi, bu esa energiya manbalarini diversifikatsiya qilish strategiyasining muhimligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, yangi qo'shilgan quvvatlar ulushi 7 foizni tashkil etib, qayta tiklanuvchi energiya sektorining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi hamda global energiya tizimida uzluksiz o'sish tendensiyasi mavjudligini ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkichlar ekologik barqarorlikni oshirish va karbon emissiyasini kamaytirishga qaratilgan jahon miqyosidagi sa'y-harakatlarning amaliy natijasi sifatida baholanishi mumkin (1-jadval).

1-jadval. "O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot ulushi 2019–2025" [14]

Ko'rsatkichlar	Ulush (%)
Umumiy qayta tiklanuvchi energiya ulushi	23 %
Quyosh energiyasi ulushi	12 %
Shamol energiyasi ulushi	10 %
Gidro energiyasi ulushi	8 %
Tejalgan tabiiy gaz natijasida kamayish	4 %
Kamaytirilgan CO ₂ chiqindilari	5 %

Keltirilgan jadval O'zbekistonning 2019–2025-yillarda yashil iqtisodiyot hamda qayta tiklanuvchi energiya sohasida erishgan rivojlanish tendensiyalarini yaqqol ko'rsatadi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi 10 foizdan 23 foizgacha oshgan bo'lib, bu mamlakat energiya ishlab chiqarishida yashil manbalar ulushi sezilarli darajada ortganini bildiradi. Shu bilan birga, "yashil" energiya ishlab chiqarish hajmi 6,5 mlrd kVt-soatdan 14,5 mlrd kVt-soatgacha yetib, ikki baravardan ortiq o'sishni namoyon etmoqda. Bu esa texnologik modernizatsiya va investitsiyalarning samaradorligini aks ettiradi.

Issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish ko'rsatkichi 1,2 mln tonnadan 2,9 mln tonnagacha oshgan, ya'ni chiqindilarni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarali bo'lganini ko'rsatadi. Energiya samaradorligi 3,5 foizdan 7,4 foizgacha oshib, ishlab chiqarish jarayonlarida tejamkorlik hamda texnologik yangilanishlar mavjudligini tasdiqlaydi. Quyosh va shamol elektr stansiyalari soni 3 tadan 20 tagacha ko'payib, qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasining kengayganini anglatadi. Natijada qayta tiklanuvchi energiya quvvati 1 500 MVtdan 5 582 MVtgacha oshib, ishlab chiqarish hamda energetik quvvat hajmida barqaror o'sish kuzatilgan.

Umuman olganda, 2019–2025-yillarda O'zbekiston ekologik barqarorlik va energiya strategiyasini amalga oshirishda sezilarli yutuqlarga erishgan. Bu esa mamlakatning global yashil iqtisodiyot tendensiyalariga moslashishi hamda kelgusida ushbu yo'nalishda yanada rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushining ortishi va yangi quvvatlarning barqaror ravishda qo'shilishi yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Global tajribalar, xususan, Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasi, O'zbekiston uchun energiya siyosatini modernizatsiya qilish hamda ekologik samaradorlikni oshirish borasida muhim yo'riqnoma bo'lib xizmat qilmoqda.

Kelajakda yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni ko'paytirish, energiya samaradorligini oshirish va karbon emissiyasini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni kengaytirish mamlakatning barqaror rivojlanishi hamda aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va xalqaro standartlarga mos energetika tizimini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qayta tiklanuvchi energiya sohasiga davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda soliq imtiyozlarini kengaytirish.
2. Energiya samaradorligini oshirish bo'yicha milliy dasturlarni joriy etish va zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq qilish.
3. Xalqaro tajriba asosida quyosh va shamol elektr stansiyalarini kengaytirish hamda energiya manbalarini diversifikatsiya qilish strategiyasini rivojlantirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Toshpo'lotova J.N. "Yashil iqtisodiyot tamoyillari va ularning milliy rivojlanishdagi ahamiyati".
2. Ismanov I.N. "Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari".
3. Mustafaqulov Y.B., Qilichov S.S. "Yashil iqtisodiyot va uning rivojlanish bosqichlari".
4. Dogaru "Green Economy and Green Growth—Opportunities for Sustainable Development".
5. Inesa Mikhno, Viktor Koval, Halyna Shvets, Oksana Garmatiuk, Rima Tamošiūnienė "Green Economy in Sustainable Development and Improvement of Resource Efficiency".
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
7. "Solar and Wind Power Plants in Uzbekistan Generate 1 Billion kWh of Green Energy in 2026".
8. "The Share of Green Energy in Uzbekistan Has Reached a Historic 23 Percent".
9. "Uzbekistan Announces \$1.3 Billion Waste-to-Energy Projects".
10. "Clean Energy Drove More Than a Third of China's GDP Growth in 2025".
11. "Renewable Capacity Statistics 2025".
12. "World Energy Investment 2024".
13. "Global Energy Review 2025 – Key Findings".
14. "O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va energetika bo'yicha yangiliklar".



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
